

HOZIRGI RIVOJLANAYOTGAN DUNYODA SUN'IY INTELLEKTNING O'RNI

Boyqulova Sevinch Muzaffarovna

Termiz Iqtisodiyot va Servis universiteti, Pedagogika va ijtimoiy gumanitar fanlar
fakulteti, Xorijiy til va adabiyoti yo'nalishi, 1-kurs 3-25 guruh talabasi

Ilmiy raxbar: Nematullayev Nodirbek Muzaffar o'g'li

<https://doi.org/10.5281/zenodo.20454502>

ANNOTATSIYA

Hozirgi rivojlanayotgan dunyoda sun'iy intellektning o'rni beqiyosdur. Biz Kundan kunga uning hayotimizning har bir jabxasiga kirib kelayotganini ko'rishimiz mumkin. Ayniqsa tibbiyot, ta'lim va shu kabi sohalarida yangi imkoniyatlar yaratmoqda. Shu bilan birga, u ish o'rinlarining qisqarishi, iqtisodiy tengsizlik va ijtimoiy mummolarni ham keltirib chiqarmoqda. Ushbu maqolada SIning foydalari hamda xavfli tomonlari ilmiy manbalar asosida yoritiladi.

Kalit so'zlar: sun'y intellekt, texnologiyalar, mexnat bozori, avtomatlashtirish, iqtisodiyot

KIRISH

Sun'iy intellekt deganda insonning mantiqiy va ijodiy funksiyalarini bajarishga qodir bo'lgan sun'iy tizimlar tushuniladi. U o'rganish, qaror qabul qilish va muammolarni hal qilish kabi inson aqli bilan bog'liq jarayonlarni amalga oshiradi. So'ngi yillarda SI texnologiyalari tez rivojlanib, jamiyatning deyarli barcha sohalariga kirib bormoqda. Tadqiqotlarga ko'ra, kelgusi 10 yil Ichida SI global miqyosda katta o'zgarishlarga sabab bo'lishi mumkin. Bu esa bir tomondan rivojlanish imkoniyatlarini kengaytirsa, ikkinchi tomondan ijtimoiy hamda iqtisodiy xavflarni ham yuzaga keltiradi.

ADABIYOTLAR TAHLILI

Ilmiy adabiyotlar tahlili shuni ko'rsatadiki, turli tadqiqotchilar Sini nafaqat texnologik yutuq, balki ijtimoiy-iqtisodiy o'zgarishlarga sabab bo'luvchi muhim omil sifatida baholashadi. Jefri Xinton kabi SI asoschilaridan biri sun'iy intellekt insoniyat uchun jiddiy xavf tug'dirishi mumkinligini ta'kidlab uning nazoratsiz rivojlanishi global muammolarni kuchaytirishi ehtimolini bildirdi. Bu fikr fikr Sidan ehtiyotkorlik bilan foydalanish kerak ekanligini angalatadi. Xususan, jahon iqtisodiy forumi hisobotlariga ko'ra, avtomatlashtirish natijasida bir qator kasblar yo'qolib ketishi kutilmoqda. Ilmiy adabiyotlarda SIning ijobiy jihatlari ham keng tahlil qilingan. Masalan, jurnalistika sohasida SI yordamida yangiliklar tez yaratilayotgani, tibbiyotda esa kasalliklarni erta aniqlash va davolash jarayonlarni yaxshilashga xuzmat qilayotgani qayd etilgan. Shuningdek, qishloq xo'jaligida ob-havo, tuproq holati va zararkunandalarni tahlil qilish orqali samaradorlik oshirilmoqda. Umuman olganda, SI texnologiyasi ikki tomonlama ham tasirga ega ekanini ko'rishimiz mumkin, ya'ni qanchalik imkoniyatlar yaratsa, shunchalik xavflarni ham yuzaga keltiradi.

METODOLOGIYA

Tadqiqot metodologiyasi sifatida ushbu maqola nazariy-tahliliy yondashuv asosida yozildi. Tadqiqot jarayonida ilmiy maqolalar tahlil qilindi, turli xalqaro tashkilotar ma'lumotlari o'rganildi va SIning iqtisodiyot, sog'liqni saqlash va mehnat bozoriga tasiri ko'rib chiqildi. Va so'ngida metod sifatida sifat tahlili usuli qo'llanildi.

NATIJALAR

Talillar quyidagi natijalarni ko'rsatdi:

- SI mehnat bozorida katta o'zgarishlarga sabab bo'lmoqda, katta miqdordagi ish o'rinlari qisqarib, bazi yangi ishlar paydo bo'lmoqda.

- Ta’lim, tibbiyot va qishloq xo’jaligida SI samaradorlikni oshirmoqda.
- McKisney Global Institute ma’lumotlariga ko’ra 2030-yilgacha global iqtisodiyotga trillionlab dollar qo’shimcha qiymat keltirishi mumkin.
- 82 million ishi o’rni yo’qolishi xavfi prognoz qilingan
- Harvard Business Review hisobotiga ko’ra Associated Press sun’iy intellektni qisqacha yangiliklar yozishga o’rgatish orqali 12 barobar ko’proq maqola nashr etgan.
- Metrodonis kompaniyasi esa IBM bilan hamkorlikda qandli diabet kassaligi bilan og’rigan bemorlar uchun maxsus dastur ishlab chiqarilmoqda. Mazkur dasturiy ta’minot qon tarkibidagi qand miqdorining favqulotda tushib ketishini 3 soat oldin aniqlash imkoniga egadir.
- BMT oziq ovqat va qishloq xo’jaligi tashkiloti ham SI afzalliklarini tan oladi: ular razvedka ob-havo sharoiti, zararkunandalar, tuproq namligi va boshqa muhim ko’rsatkichlar haqidagi ma’lumotlarni hisobga olgan holatda fermerlarga ishni yanada samarali rejalashtirishga imkon beradi

MUHOKAMA

Sun’iy intellektning rivojlanishi insoniyat uchun har ikki tomonlama tasir ko’rsatmoqda. Bir tomondan u hayotni osonlashtiradi, tibbiyot, ta’lim va iqtisodiyotda yangi imkoniyatlar yaratadi. Ikkinchi tomondan esa ish o’rinlarining qisqarishi, iqtisodiy tengsizlik va texnologik raqobatning kuchayishi kabi maummolarni yuzaga keltiradi.

XULOSA

Sun’iy intellekt zamonaviy jamiyatning ajralmas qismiga aylanib bormoqda. U inson hayotini yengillashtirishda va samaradorlikni oshirishda yordam bermoqda. Biroq uning salbiy oqibatlarini ham e’tibordan chetda qoldirib bo’lmaydi. Sun’iy intellektdan mas’uliyat bilan va oqilona tarzda foydalanish muhimdir.

Adabiyotlar, References, Литературы:

1. Nexa soni, Enakshi Khular Sharma, Narotam Singh, Amita Kapoor-Impact of Artificial Intelligence of Businesses 2019
2. Vladimir A. Tsyvk, Irina V, Galina I – Artificial Intelligence in Modern Society: Steps, Challenges, Strategies, RUDN university 2024
3. Food and Agriculture Organization – The State of Food and Agriculture 2022, Leveraging Automation in Agriculture for Transforming Agrifood Systems, United Nations 2022
4. Guide to medical informatics the internet and telemedicine CHAPMAN and HALL, Ltd, 1997
5. Harvard Business Revive – Artificial Intelligence in Journalism 2022
6. Inside BIGDATA-AI in Economy and Healthcare 2022
7. Klaus Schwab, Saddia Zahidi- The Future of Jobs Report 2023, World Economic Forum 2023
8. Tyna Eloundou, Sam Manning, Pamela Mishkin, Daniel Rock-GPTS are GPTS: An early Look at the Labor Market Impact 2023
9. Livetsglobal.com-Pros and Cons of Artificial Intelligence in Classroom
10. Piterova A.Y.- Artificial Intelligence as a Phenomenon of modern social development.